

Qishloq xo‘jaligi vazirining
“24 may 2025-yildagi
130-son buyrug‘iga
1-ilova

**Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan Italiyaning Tusha universitetida
magistratura bosqichidagi ta’lim dasturlarida ta’lim olish bo‘yicha
nomzodlarni saralash tanlovini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida**
NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizmidagi oliy ta’lim muassasalarini bitirgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari o‘rtasida Qishloq xo‘jaligi vazirligi (keyingi o‘rinlarda - Vazirlik) tomonidan Italiyaning Tusha universitetida (keyingi o‘rinlarda - Universitet) magistratura bosqichidagi ta’lim dasturlarida (keyingi o‘rinlarda – ta’lim dasturlari) ta’lim olish bo‘yicha nomzodlarni saralash tanlovi (keyingi o‘rinlarda – Saralash tanlovi)ni tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Vazirlik tomonidan saralash tanlovi qonuniy, ochiq, oshkora, shaffoflik asosida amalga oshiriladi.

3. Ta’lim dasturlari bo‘yicha nomzodlarni saralash faqat O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari o‘rtasida o‘tkazilib, Universitetning ta’lim dasturlari talablari asosida amalga oshiriladi*.

**2-bob. Saralash tanlovida ishtirok etish uchun hujjatlarni qabul qilish tartibi
va saralash tanlovini o‘tkazish bosqichlari**

4. Saralash tanlovi 2025-yilning may-iyul oylari oralig‘ida o‘tkaziladi.

Saralash tanlovi haqidagi ma’lumotlar Vazirlikning veb-saytida va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e’lon qilib boriladi.

Saralash tanlovi o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lon quyidagi ma’lumotlardan iborat bo‘ladi:

arizalarni qabul qilish muddatlari, tartibi va joyi;

saralash tanlovini o‘tkazish joyi va muddatlari;

aloqa vositalari va elektron manzillar.

5. Saralash tanlovida quyidagi nomzodlar ishtirok etishi mumkin:

a) 31.12.1994-yildan keyin tug‘ilgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari;

* Ta’lim dasturlari talabi haqidagi ma’lumotni quyidagi havola orqali olish mumkin:
<https://www.unitus.it/corsi/corsi-di-laurea-magistrale/>

b) 31.12.2017-yildan keyin Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi oliv ta’lim muassasalarining bakalavr darajasiga ega bo‘lgan shaxslar hamda 2025-yil 31-iyulgacha bakalavr darajasini oladigan bitiruvchi talabalar;

d) bakalavr darajasida o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi (GPA) Italiya baholash tizimi bo‘yicha kamida 27/30 ega bo‘lgan shaxslar;

e) ingliz tilida kamida B2 xalqaro sertifikatga (IELTS, CAE, TOEFL, PITMAN, ESD, Pearson) ega bo‘lgan shaxslar.

Italiya universitetlarida bakalavr va magistratura bosqichida ta’lim olgan shaxslar tanlovda ishtirot etishi mumkin emas.

6. Saralash tanlovi uch bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda talabgor ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha Universitetning veb-saytida (<https://www.unitus.it/corsi/corsi-di-laurea-magistrale/>) talab qilingan hujjatlarni onlayn tarzda tizimga yuklaydi.

Tizimga joylangan hujjatlar Universitet xodimlari tomonidan tekshiriladi va mazkur Nizom talablariga javob bergen nomzodlar ikkinchi bosqichda suhbatga taklif qilinadi.

Suhbat jarayonlari Universitetning har bir ta’lim dasturi dekani tomonidan onlayn tarzda olib boriladi. Nomzodlar suhbat natijalariga ko‘ra baholanadi va Universitetga qabul qilinadi.

Universitetga qabul qilingan nomzodlar uchinchi bosqichda vazirlik stipendiyasi uchun quyidagi hujjatlarni topshiradi:

a) quyidagi havola orqali onlayn shakldagi ariza
<https://forms.gle/UrwnXNYrohLUxP7S9>

b) amaldagi xorijga chiqish pasporti;

d) bakalavr diplomi, agar talabgor so‘nggi bosqich talabasi bo‘lsa, bakalavr darajasini 2025-yil 31-iyulga qadar olishi to‘g‘risida ingliz tilida tayyorlangan ma’lumotnoma;

e) bakalavr bosqichida topshirilgan imtihonlarning to‘liq ro‘yxati va imtihon natijalari ko‘rsatilgan diplom ilovasi (yoki ma’lumotnoma – Reyting daftar tarjimasi) va baholash tizimi (tegishli ta’lim muassasasidagi minimal va maksimal ball) haqida ma’lumotnoma;

f) B2 darajadagi ingliz tili sertifikati (IELTS, CAE, TOEFL, Pitman, ESD, Pearson) yoki to‘liq ingliz tilida o‘qitiladigan bakalavr dasturida qatnashganligini tasdiqlovchi hujjat;

g) ingliz tilida yozilgan ma’lumotnoma (CV);

h) Qiziqishlari haqida insho (Motivatsiya xati) (ko‘pi bilan bitta A4 varoqda);

j) tanlangan magistratura ta’lim dasturiga qabul qilinganlik xati (acceptance letter – ikkinchi bosqichdan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlarga beriladi).

7. Saralash tanlovini tashkil etish va o‘tkazish Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan Italiyaning Tusha universitetida magistratura bosqichidagi ta’lim dasturlarida ta’lim olish bo‘yicha nomzodlarni saralash tanlovi komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – Komissiya) tomonidan amalga oshiriladi.

8. Komissiya tarkibi 5 nafar Universitet vakili hamda 2 nafar Vazirlik vakilidan iborat bo‘ladi.

9. Komissiya saralash tanlov jarayonlari adolatli o‘tkazilishi, shuningdek ularning natijalari xolisligi uchun javobgar hisoblanadi.

10. Vazirlik stipendiyasiga nomzodlar malaka talablari asosida Komissiya tomonidan tanlanadi va baholanadi.

Nomzodlar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Yoshi;

Ta’lim yo‘nalishi va o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi;

Ingliz tili sertifikati va (yoki) boshqa malakalar;

CV va boshqa shaxsiy ko‘nikmalarni baholash;

Motivatsiya xati;

Ikkinchi bosqichdagi suhbat natijalari.

Komissiya tomonidan baholangan nomzodlar orasidan eng yuqori ball to‘plagan jami 20 nafar nomzodga har bir ta’lim dasturlari bo‘yicha ajratilgan kvotalar asosida vazirlik stipendiyasi beriladi.

Saralash jarayonida komissiya tomonidan teng hududiy taqsimlanishga, gender tengligiga, nomzodning yoshiga hamda til bilish darajasiga e’tibor beriladi. Nomzodlar to‘plagan ballar teng bo‘lgan taqdirda, eng yosh nomzodga ustunlik beriladi.

Komissiyaning saralash tanlovi natijalarini tasdiqlash haqidagi qarori tanlov o‘tkazilgandan so‘ng 30 ish kuni ichida e’lon qilinadi

Saralash tanlovidan muvaffaqiyatlil o‘tgan nomzodlar elektron pochta orqali xabardor qilinadi.

11. Vazirlik stipendiyasini qo‘lga kiritgan talabalar ta’lim olish davrida Italiya hukumati yoki Yevropa ittifoqi tomonidan e’lon qilingan boshqa stipendiyani olishi mumkin emas.

12. Saralash tanlovining barcha bosqichlaridan muvaffaqiyatlil o‘tgan nomzodlar hujjatlarini tegishli tarzda rasmiylashtirilgan holda chop etilgan shaklda va belgilangan muddatda vazirlikka taqdim etadilar.

3-bob. Vazirlik stipendiyasi

13. Vazirlik va Universitet o‘rtasida 2025-yil 26-aprelda imzolangan shartnomaga shartlariga muvofiq magistratura bosqichining quyidagi yo‘nalishlari bo‘yicha jami 20 nafar nomzodga Vazirlik stipendiyalari ajratiladi:

Ta’lim dasturi	Ta’lim tili	Ajratiladigan stipendiyalar soni
Circular Economy (Aylanma iqtisodiyot)	Ingliz	5
Forestry and Environmental Sciences (O’rmon xo‘jaligi va atrof-muhit fanlari)	Ingliz	3
Plant biotechnology for Food and Global Health (Oziq-ovqat va Global Salomatlik uchun o’simlik biotexnologiyasi)	Ingliz	5
Agricultural and Environmental Sciences - Organic Agriculture in Mediterranean Area (Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhit fanlari – O’rta yer dengizi mintaqasida organik qishloq xo‘jaligi)	Ingliz	3
Digital Management of Agriculture and Mountain Areas (Qishloq xo‘jaligi va tog‘li hududlarni raqamli boshqarish)	Ingliz	4
Jami:		20

14. Vazirlik tomonidan ikki yillik ta’lim dasturlarida o‘qishga yuboriladigan 20 nafar talabalar uchun jami 310 000 (uch yuz o’n ming) yevro miqdordagi xarajatlar Yevropa Ittifoqining “Budgetni qo‘llab-quvvatlash” loyihasi doirasida ajratilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladi.

Saralab olingan nomzodlarga quyidagi xarajatlar stipendiya sifatida qoplab beriladi:

kunlik xarajatlar uchun bir akademik o‘quv yiliga 7 000,00 (yetti ming) yevro;
safar xarajati va o‘quv adabiyotlari xarajatlari uchun 2500,00 (ikki ming besh yuz) yevro stipendiya beriladi.

To‘lovlar quyidagi grafik asosida amalga oshiriladi:

birinchi to‘lov talabalar Italiyaga yetib borganlaridan keyin hamda 2025/2026-o‘quv yiliga ro‘yxatga olingandan keyin 1 (bir) oy muddatda;
ikkinci to‘lov birinchi semestr yakunlangandan keyin;
uchinchchi to‘lov ikkinchi semestr yakunlangandan keyin.

Ta’lim olish Universitet tomonidan qabul qilingan standartlar, talablar va o‘quv rejalariga muvofiq amalga oshiriladi. Agar talaba 2026-yil iyuligacha 18 ta CFU (Universitet ta’lim krediti) to‘plaganda, Universitet tomonidan talabaning keyingi

o‘quv yili uchun stipendiyasi berilishi belgilanadi va to‘lovlar yuqorida ko‘rsatilgan grafik asosida uchga bo‘lib amalga oshiriladi.

Talaba Italiya qonunchilikida ko‘rsatilgan soliq to‘lash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

15. Vazirlik stipendiyasi bilan taqdirlangani e’lon qilingan tanlovdan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar xabarnoma olingan kundan boshlab 10 kun ichida Universitet veb-portalida ro‘yxatdan o‘tishlari kerak. Belgilangan muddatda ro‘yxatdan o‘tmaslik stipendiya olishdan mahrum qilinishiga olib keladi.

Vazirlik stipendiyasi bilan taqdirlangan talabalar, vazirlik bilan ikki tomonlama shartnoma imzolaydi. Ushbu jarayonda stipendiat magistratura dasturini yakunlagandan so‘ng vazirlik yoki vazirlikning tizim tashkilotlarida mehnat faoliyatini olib borish haqidagi ish beruvchi tomonidan tayyorlangan kafolat xatini vazirlikka taqdim etishi lozim.

Ta’lim dasturi tugallanganidan so‘ng, stipendiatlar shartnoma talablariga qat’iy amal qilgan holda Vazirlikka diplom nusxasini va diplom ishini elektron variantini taqdim etadi. Keyinchalik diplom ishlar barcha foydalanishi mumkin bo‘lgan elektron kutubxonaga joylashtirilishi mumkin.

Saralash yakunlari bo‘yicha stipendiat deb e’lon qilingan nomzodlar uzrli sabablarsiz Vazirlik bilan shartnomani belgilangan muddatdan kech imzolagan yoki imzolashdan bosh tortganida Stipendiatlar ro‘yxatidan chiqariladi.

Stipendiatlar ro‘yxatidan chiqarilgan shaxslar o‘rnini to‘ldirish uchun keyingi eng yuqori ball to‘plagan nomzod Stipendiatlar ro‘yxatiga kiritiladi.

16. Stipendiatlarga vazirlik va vazirlikning tizim tashkilotlarida egallagan mutaxassisligi bo‘yicha 2 yil muddatda to‘liq bandlik rejimida uzlusiz ishlab berish majburiyati yuklanadi.

17. Stipendiat uzrsiz sabablarga ko‘ra xorijiy ta’lim, ilmiy yoki boshqa muassasalarning talabalari safidan chiqarilganda yoki ta’lim dasturlari tugagandan so‘ng u bilan tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq vazirlik va vazirlikning tizim tashkilotlarida mehnat faoliyatini davom ettirishdan bosh tortgan taqdirda, Vazirlik tomonidan uni o‘qitishga sarflangan barcha moliyaviy xarajatlar Stipendiatdan qonunchilikda belgilangan tartibda undirish choralarini ko‘riladi.

4-bob. Apellyatsiya komissiyasi

18. Ushbu Nizomga muvofiq saralash tanlovi natijalaridan norozi bo‘lgan nomzodlar tanlov natijalari e’lon qilinganidan so‘ng 2 ish kuni ichida onlayn tarzda apellyatsiya shikoyatini berishlari mumkin.

19. Apellyatsiya komissiyasi shikoyatni yetti ish kunida ko‘rib chiqib, saralash tanlovi natijalarini bekor qilishi, o‘zgartirishi yoki o‘z kuchida qoldirishi to‘g‘risida qaror qabul qiladi va arizachini elektron pochta orqali xabardor qiladi.

5-bob. Yakunlovchi qoida

20. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor deb topilgan shaxslar tegishli qonunchilik hujjatlari asosida javobgarlikka tortiladi.